



SPECIFIC FEATURES OF FINANCING SOCIAL PROJECTS THROUGH STATE GRANTS

Khasanov Jakhongir Botir ugli

Independent researcher, Tashkent State University of Economics

E-mail: 903202221@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15690268>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2025

Accepted: 17th June 2025

Online: 18th June 2025

KEYWORDS

Social projects, state grant, financing, accountability, competition, sustainability, financial control.

ABSTRACT

The article analyzes the main features of financing social projects through state grants, as well as their advantages and implementation challenges. State grants play an important role in implementing priority tasks in the social sector; however, issues such as financial accountability, bureaucracy, and continuity of funding need to be carefully considered. The article includes recommendations for the effective use of the grant mechanism and ensuring the sustainability of social projects.

ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ В ФОРМЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАНТО

Хасанов Жахонгир Ботир угли

Независимый исследователь, Ташкентский государственный экономический университет

E-mail: 903202221@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15690268>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2025

Accepted: 17th June 2025

Online: 18th June 2025

KEYWORDS

Социальные проекты, государственный грант, финансирование, отчетность, конкурс, устойчивость, финансовый контроль.

ABSTRACT

В статье проанализированы основные особенности финансирования социальных проектов в форме государственных грантов, а также их преимущества и проблемы реализации. Государственные гранты играют важную роль в реализации приоритетных задач в социальной сфере, однако необходимо учитывать такие вопросы, как финансовая отчетность, бюрократия и непрерывность финансирования. В статье содержатся рекомендации по эффективному использованию механизма грантов и обеспечению устойчивости социальных проектов.

IJTIMOIIY LOYIHALARNI DAVLAT GRANTI SHAKLIDA MOLIALASHTIRISHNING ALOHIDA HUSUSIYATLARI

Xasanov Jahongir Botir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

E-mail: 903202221@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15690268>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 12th June 2025
Accepted: 17th June 2025
Online: 18th June 2025

KEYWORDS

Ijtimoiy loyihalar, davlat granti, moliyalashtirish, hisobdorlik, tanlov, barqarorlik, moliyaviy nazorat.

Maqolada ijtimoiy loyihalarni davlat granti shaklida moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari va ularning amalga oshirilish jarayonidagi afzalliklari hamda muammolari tahlil qilingan. Davlat grantlari ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, ammo moliyaviy hisobdorlik, byurokratiya va moliyalashtirishning uzluksizligi kabi masalalar e'tiborga olinishi zarur hisoblanadi. Maqola grantlar mexanizmidan samarali foydalanish va ijtimoiy loyihalarning barqarorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy loyihalar – bu jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalardir. Ular aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohaslaridagi ko'plab muhim vazifalarni amalga oshiradi. Mazkur loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatning umumiy farovonligi va barqaror rivojlanishi uchun muhimdir.

Ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish manbalari turlicha bo'lib, ular orasida davlat grantlari alohida ahamiyatga ega. Davlat grantlari ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirishning maqsadli vositasi sifatida joriy etilgan. Ular orqali davlat ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga e'tibor qaratadi va loyihalarni sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim etadi. Shuningdek, grantlar moliyalashtirishda ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Biroq, davlat granti shaklida moliyalashtirishning o'zgacha xususiyatlari va muammolari mavjud bo'lib, ularning tahlili va yechimlari ijtimoiy loyihalarning samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ijtimoiy loyihalarni davlat granti orqali moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari, afzalliklari va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar o'rganiladi hamda ularga amaliy tavsiyalar berilgan.

Davlat granti shaklida moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari

Ijtimoiy loyihalarni davlat granti shaklida moliyalashtirishning eng muhim xususiyati – mablag'larning maqsadga yo'naltirilganligi hisoblanadi. Davlat grantlari odatda jamiyatda ustuvor sanalgan sohalarga, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohaslariga ajratiladi. Bu mexanizm orqali grant oluvchi tashkilotlar belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar bilan ta'minlanadi, bu esa ijtimoiy loyihalarning aniq maqsad va natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Davlat granti ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari, shuningdek jamoat fondlarining mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo'yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir¹.

Grantlar taqdim etilishida tanlov tizimi muhim rol o'ynaydi. Davlat grantlari odatda ochiq tanlovlar asosida taqdim etiladi va bu jarayonda loyihalar malakali komissiya tomonidan

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2014. 20-моддаси.



baholanadi. Bu tanlov mexanizmi grant mablag'larining samarali va shaffof taqsimlanishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy loyihalar orasida raqobat muhitini yaratadi. Shu bilan birga, tanlov jarayonida loyiha g'oyasi, uning amalga oshirish rejasi, ijtimoiy ahamiyati va natijalarini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Davlat granti moliyaviy hisobdorlik va nazorat mexanizmlari bilan birga yuritiladi. Grant oluvchi tashkilotlar olingan mablag'lardan faqatgina belgilangan maqsadlarda foydalanishi va hisobot berish majburiyatini oladi. Bu hisobdorlik tizimi grant mablag'larining noqonuniy foydalanilishi va sarflashdagi kamchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat hamda audit jarayonlari moliyalashtirishning shaffof va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Grantning amal qilish muddati ham muhimdir. Davlat granti ko'pincha muayyan vaqt davomida amal qiladi va ushbu muddat ichida loyiha belgilangan natijalarga erishishi kerak. Muddatga qat'iy rioya qilish loyihalarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi, shu bilan birga grantning maqsadli samaradorligini oshiradi.

Davlat granti shaklida moliyalashtirishning afzalliklari

Davlat grantlari orqali ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, grantlar ijtimoiy sohadagi muhim muammolarni hal qilishga yordam beradi va jamiyatning farovonligini oshiradi. Ushbu moliyalashtirish shakli orqali davlat ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, grant tanlovlari va moliyaviy hisobdorlik tizimi loyihalar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tanlov jarayonida loyiha g'oyalari mutaxassislar tomonidan sinchillik bilan o'rganiladi, bu esa loyihalarining samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobdorlik tizimi mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini kafolatlaydi.

Uchinchidan, davlat grantlari jamoatchilikning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi. Grantlar orqali nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalliy jamoalar va fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi, bu esa ijtimoiy sheriklik va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Davlat granti shaklida moliyalashtirishdagi muammolar va yechimlar

Davlat granti shaklida moliyalashtirish jarayonida ba'zi muammolar ham uchraydi. Bular orasida eng ko'p uchraydiganlari – byurokratiyaning ortiqcha darajasi, moliyaviy hisobdorlikdagi muammolar va grant mablag'larining uzluksiz taqdim etilishining kafolatlanmaganligi.

Byurokratiyaning ko'pligi grant olish jarayonini murakkablashtiradi, natijada ko'p tashkilotlar o'z loyihalarini amalga oshirishda kechikishlar va qiyinchiliklarga duch keladi. Bu muammoni kamaytirish uchun elektron platforma orqali ariza berish va hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish muhimdir.

Moliyaviy hisobdorlik va nazorat tizimiga ham e'tibor qaratish zarur. Hisobot berish jarayonida kamchiliklar va mablag'larni noqonuniy sarflash holatlari grant mexanizmining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun grant oluvchi tashkilotlarning moliyaviy xisobotlarini qat'iy va aniq tekshirish, shuningdek ularga moliyaviy bilim va malaka berish dasturlarini yo'lga qo'yish kerak.



Barqaror moliyalashtirishning ta'minlanmaganligi ijtimoiy loyihalarning uzluksizligini xavf ostiga qo'yadi. Davlat grantlari ko'pincha muddatli bo'lib, grant tugagandan keyin loyihalarning davom etishi uchun qo'shimcha manbalarni topish zarur bo'ladi. Bu muammoni hal etish maqsadida xususiy sektor, xo'jalik jamiyatlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek grantdan tashqari boshqa moliyaviy resurslar manbalarini ishlab chiqish kerak.

Xulosa

Ijtimoiy loyihalarni davlat granti shaklida moliyalashtirish jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Davlat grantlari orqali maqsadli va ustuvor ijtimoiy sohalarga zarur moliyaviy resurslar taqdim etiladi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyalashtirish jarayonida ochiq tanlovlar, qat'iy moliyaviy hisobdorlik va nazorat tizimlari grant mexanizmining shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Biroq, davlat granti shaklida moliyalashtirishda byurokratiyaning ko'pligi, moliyaviy hisobdorlikdagi kamchiliklar va grant mablag'larining uzluksiz taqdim etilishining kafolatlanmaganligi kabi muammolar ham mavjud. Bu muammolar ijtimoiy loyihalarning sifatli amalga oshirilishi va uzluksizligini xavf ostiga qo'yadi. Shuningdek, grantlarning muddati cheklanganligi loyihalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda qo'shimcha muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli davlat granti shaklida ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va ushbu muammolarga samarali yechimlar topish zarur. Bu ijtimoiy sohadagi loyihalarning samarali va barqaror amalga oshirilishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Tavsiyalar

Byurokratik to'siqlarni kamaytirish

Grantlar uchun ariza berish va hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida elektron platforma va avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilishi jadallashtirish kerak. Bu grant olish jarayonini tezlashtirib, ko'proq ijtimoiy loyiha ishtirokchilariga imkoniyat yaratadi.

Moliyaviy hisobdorlik va nazoratni kuchaytirish

Grant oluvchi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari va faoliyatini muntazam va qat'iy tekshirish tizimi joriy etilishi lozim. Shuningdek, moliyaviy bilim va malaka oshirish bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etilib, grant oluvchilarning mas'uliyati oshirilishi kerak.

Barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish

Davlat grantlari muddati tugagandan keyin ijtimoiy loyihalarning uzluksizligini ta'minlash uchun xususiy sektor, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish lozim. Shuningdek, grantdan tashqari boshqa moliyaviy manbalarni ishlab chiqish va jalb qilish choralari ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik faolligini oshirish

Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda mahalliy jamoalar, notijorat sektor va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish, ularning grantlarga oid bilim va imkoniyatlarini oshirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Tanlov jarayonining shaffofligini ta'minlash



Grant tanlovlari ochiq va adolatli o'tishini ta'minlash uchun baholash mezonlari aniq va qat'iy bo'lishi lozim. Tanlov natijalari haqida jamoatchilikka tizimli ravishda axborot berish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash kerak.

References:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 1999.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2007.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2014.
4. Ильина И.Л. Гранты: как источник финансирования молодежных инициатив – Молодежь России. – 2021. – №4. – С. 12-19.
5. Гергаулов И. Э. Финансирование проектов: основные формы привлечения инвестиций [Электронный ресурс] // Научные труды Московского гуманитарного университета. 2018. № 5. URL: <http://journals.mosgu.ru/trudy>
6. Кумаритова А.А. Государственные и муниципальные гранты: возникновение, становление и перспективы развития в российском гражданском праве – Журнал российского права. – 2008. – №7.